



O`ZBEK TILIDA ETNONIMLARNING ONOMASTIKASI TAHLILI

Imomova Rahima

TerDU lingvistika(o`zbek tili) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6657806>

ARTICLE INFO

Received: 28th May 2022

Accepted: 02nd June 2022

Online: 05th June 2022

KEY WORDS

etnonim, onomatsika, tahlil, etnik guruh nomlari, tarix, milliy madaniyat, yondashuv.

ABSTRACT

Ushbu maqolada etnonimlar va ularning o`ziga xos xususiyatlari xususida fikr yuritiladi. Ta`kidlash lozimki, o`zbek tilida mavjud etnonimlar qay tarzda nomlanishiga ko`ra ma`lum jihatlarga ega bo`lib, ularni ushbu maqolada tahlil qilishga harakat qilamiz. O`zbek tilida qo`llaniladigan etnonimlar etnik guruhlar nomlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tahlil qilingan bo`lib, ularning mohiyatini ochib berish uchun qator misollardan foydalanamiz.

Ma`lumki, yer yuzida mavjud yaratiqlarning barchasiga o`ziga xos nomlanish tarixi va sabablariga egadir. Ana shu nomlarning xalq lisonida saqlanib qolishi ma`lum jihatlar evaziga yuzaga keladi[3]. Ta`kidlash lozimki, har qaysi obyekt yoki subyektga berilgan nom ba`zi xususiyatlarga tayangan holda mavjuddir. Biz siz bilan tadqiq qilmoqchi bo`lgan ushbu maqolada elat, xalq, ma`lum etnik guruhlarga berilgan nomlar hamda ularning onomastik tahlili yuzasidan so`z yuritamiz.

O`zbek tilida har bir so`zlar guruhining o`ziga xos nomlanish tizimi mavjud. Jumladan, o`simliklar tilshunoslikda fitonim deb nomlansa, jonivorlarga berilgan nomlar zoonym atamasi bilan qayd etiladi. Xuddi shu kabi xalq, millat, qabila, urug`, bir so`z bilan aytganda, etnik uyushmalarning o`ziga xos nomlanishi mavjud bo`lib, ular lingvistikada etnonimlar deb yuritiladi. Etnonim termini grekcha “etno va oputa” so`zlari

yig`indisidan tashkil topgan bo`lib, “qabila va nom” integratsiyaviy ma`nosini ifodalab keladi[5]. Etnonim yig`indisining ham o`ziga xos onomastikasi mavjud bo`lib, uning etnonimiya deb nomlanishi ham ma`lum ahamiyat kasb etadi. Etnonimlar nomlanishiga ko`ra ikki yirik guruhga bo`linadi, ya`ni:

- a) avtoetnonim;
- b) allogen etnonim[8].


Avtoetnonimlar xalqlarning o`zi tomonidan tanlangan nom hisoblansa, allogen etnonimlar o`zga kishilar tomonidan qo`llanilgan nom hisoblanadi. Bunga misol tariqasida Germaniyada xalqining nemislar deb nomlanishini keltirishimiz mumkin. Ularning “nemis” tarzida atalishi boshqa xalqlar tomonidan qo`llanilgan nom bo`lib, bu allogen etnonim hisoblansa, o`zlarini “Deustche” tarzida nomlashlari avtoetnonimga misol sanaladi[11].

Etnonimlar onomastikasiga ta`sir qiluvchi asosiy omil bu vaqt hisoblanadi. Vaqtlar o`tgani sayin ma`lum bir etnik guruhga

berilgan nom tubdan o`zgarib ketishi mumkin. Jumladan, "lo`li" etnik guruhini tahlil qiladigan bo`lsak, ularning davrlar o`zgargani sari boshqa nomlarga ega bo`lib

boshlagani , hozirgi kunga kelib esa "lo`li" etnonimiga ega bo`lganligining guvohi bo`lishimiz mumkin[13].

"Lo`li" etnonimining o`zgarish shajarasи:




Tarixan turli nomlar bilan atalgan lo`lilar etnik guruhi etnonimik nomga yaqqol misol hisoblanadi.

Har bir millatning entonimik tarkibini shakllantirishda ularning geografik sharoiti , iqlimi, aholining so`zlashuv tili, lisoniy qobiliyati hisobga olinadi. Xuddi shunday o`zbek tilida ham qator etnonimlar mavjud bo`lib, u yurtimizda mavjud turfa jihatlarni nazarda tutgan holda shakllantirilgan.

O`zbek tilida qo`llaniluvchi dastlabki etnonimga misol sifatida "o`zbek" atamasini keltirish mumkin. "O`zbek" atamasining qo`llanilishiga va paydo bo`lishiga doir turli qarashlar mavjud bo`lib, M. Ermatov ushbu so`zning yuzaga

kelishini turkiy qabilalarga bog`laydi. Boshqa manbalarda atamani xalqning ruhiyatiga bog`liq holda , o`zbek etnik guruhining hech kimga bo`ysunmaganligini nazarda tutgan holda "o`ziga bek" deb nomlanganligi haqida ma`lumotlar uchraydi[9].

Bundan tashqari, o`zbek xalqining sarmat etnik guruhi ham mavjud bo`lib, ular istiqomat qilgan joylar sifatida Toshkent viloyatining Chirchiq tumanidagi Sarmat qishlog`i qayd etiladi. Ushbu etnonimning etimologik kelib chiqishi mavjud bo`lib, uning o`zakdosh variant sifatida quyidagi so`zlar keltiriladi.





To`rtala o`zaklar ham (sarmat, sart, silis, sir) barchasini yasalish o`zagi sar nomli qabilaga borib taqaladi . Sar qabilasining Sirdaryo bo`ylarida istiqomat qilganligi haqida ma`lumotlar uchraydi[6].

Ta`kidash o`rinlik, ba`zi etnonimlar tarkibida rang-tusni ifodalovchi sifatlar ham ishtirok etganining guvohi bo`lishimiz mumkin. Ushbu sifat tarkibli etnonimlar etnik guruhlarning ma`lum xususiyatidan kelib chiqib nomlanganligi to`g`risida ma`lumotlar uchraydi. Qizil, qora, sariq, yangi va shu kabi sifatlardan iborat bo`lgan etnonimlar xususida shunday fikrlar bildiriladi, ya`ni: "Qadimgi davrlarda qora rang shimolni, qizil rang janubni, ko`k rang

sharqni, oq rang g`arbni, sariq rang markazni ifodalagan". Ko`rinib turibdiki, entik guruhlar joylashgan o`rin ham ularning nomlanishida ham o`z aksini topgan[4].

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, etnonimlar ma`lum xalqlarga xos etnik guruh, millat, qabila, elat nomlarini ifodalovchi guruh nomlari bo`lib, ularning qanday nomlanishi etnik guruhlarning qadimiy holatiga ko`ra baholangan. Xalqlar yashagan o`rinlar, ularning turmush tarzi, xalqlarning o`ziga xos xarakteri va shu kabi qator omillar etnonimlarning tanlanishi uchun asos bo`lib xizmat qilgan.

References:

1. Aytmuratov D. Tyurkskie etnonimy. -Nukus: Karakalpakistan,1986. -236 s.
2. Ataniyazov S.A. Slovar turkmenskix etnonimov. -Ashxabad: Ылым, 1988.-180 s.
3. Ahmedov A. O`zbek adabiy tili tarixida o`g`uz unsur va ko`rinishlarining qo'llanishi: Filol. fan. nom.... diss. avtoref. -Samarqand, 2006.
4. Ahmedov B. O`zbek qavmlari. Sirli olam. -1992. -№ 9-10.
5. Begmatov E. Antroponomika uzbekskogo языка: Avtoref. diss...kand. filol. nauk. - Tashkent: 1965.- 28 s.
6. Begaliev N. Samarqand viloyati gidronimlari: Filol. fan. nom. diss. avtoref. -Samarqand: 1994.
7. Bobur Zahiriddin Muhammad. Bobirnoma.- Toshkent: 1960. 324 b.
8. Doniyorov X. Eski o`zbek adabiy tili va qipchoq dialektlari. -Toshkent: 1986. -37 b.
9. Drevneturkskiy slovar.- L.: Nauka, 1969.- 675 s.
10. Do'simov Z. Xorazm toponimlari. -Toshkent: Fan, 1985.-104 b.
11. Do'simov Z., Egamov X. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. - Toshkent: O'qituvchi, 1977. - 174 b.
12. Do'simov Z. Toponimlarning yasalishi masalasiga doir // O'zbek tili va adabiyoti. 1980.- 44-48-b.
13. Do'simov Z. Toponimlarning yasalishi masalasiga doir // O'zbek tili va adabiyoti 1972. 5-son, 71-74-b.
14. Jo'raev B. Yuqori Qashqadaryo o`zbek shevalari. - Toshkent: Fan 1969.- 168 b.